

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Geografiya fani o'qituvchisi Davlatova Dilshoda
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari
1-bosqich talabasi Boboqulova Dilso'z

“GEOGRAFIYANI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH”

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o'quvchilariga geografiya darslarida foydalananiladigan o'yinlar va interfaol metodlar hamda ularga to'g'ri ta'lif berish haqida fikr yuritilgan.

Аннотация: В этой статье рассматриваются игры и интерактивные методы, используемые на уроках географии для школьников, а также правильное обучение.

Annotation: this article reflects on the games and interactive techniques used in geography lessons for schoolchildren, as well as the correct education for them.

Kalit so'zlar: interfaol metodlar, intellektual salohiyat, pedagogik texnologiyalar, "Charxpalak", "Bumerang", "Zanjir o'yini", "Musbat, manfiy, qiziqarli (MMQ)", "Yelpig'ich", "Location" metodlari.

Ключевые слова: интерактивные методы, интеллектуальный потенциал, педагогические технологии, методы "Чархпалак", "Бумеранг", "цепная игра", "положительный, отрицательный, интересный (ММК)", "веер", "локация".

Keywords: interactive methods, intellectual potential, pedagogical technologies, methods "Carpenter", "Boomerang", "Chain Game", "positive, negative, interesting (MMQ)", "sail", "Location".

Mamlakatimizda zamon talabiga mos yuksak intellektual salohiyatlari, zamonaviy bilim va malakaga ega, yangicha dunyoqarash va mustaqil fikrli

mutaxassislar tayyorlash uchun beqiyos imkoniyatlar yaratilgan. Ta'lim jarayonini sifatli tashkil etish, o'quvchilarni zamon talablariga mos ravishda ta'lim-tarbiya berish uchun avvalo, o'qituvchi o'z kasbini etuk mutaxassisi, kuchli bilim, iste'dod, tajriba, hamda o'quv mashg'ulotlarida zamonga mos ta'lim usullaridan qanchalik to'g'ri foydalana olayotganligiga bog'liqidir. Hozirgi axborot makonining globallashuvi, ommaviy axborot vositalari kengayib borayotgan bir paytda o'qituvchilarimiz tinimsiz izlanishlari, o'z bilim, ko'nikma va malakalarini oshirib borishlari shart. Davrimiz taraqqiyotiga hamohang ravishda ilm xazinasi yanada boyib, yoshlarning intellektual salohiyati ortib bormoqda. Endi o'qituvchi o'rganiladigan mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda o'qitish vositalari va metodlar orqali pedagogik faoliyatini tashkil etib, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish xarakterini belgilaydi. Ayniqsa, geografiya fani o'qituvchilari o'quv jarayonida dars samaradorligini oshiradigan pedagogik texnologiyalardan foydalanish bilan birgalikda axborot kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanishlari o'rnlidir. Zamonaqiy ta'limga tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritiladi.

Hozirda yangi metodlarni yoki innovatsiyalarni ta'limga jarayoniga tatbiq etish haqida gap borganda interfaol usullarining o'quv jarayoniga qo'llanishi tushuniladi. Interfaollik bu o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni o'quv-biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida yoki o'quvchi-o'qituvchining o'zaro muloqoti asosida kechadi. Interfaol ta'limga usullari o'quvchilarning nafaqat o'qituvchi bilan, balki bir-biri bilan ham keng aloqada bo'lismiga, o'quv jarayonida o'quvchilar faoliyati ustunligiga qaratilgan. Ta'lim- tarbiya tizimi orqali zamon talabiga javob beruvchi sog'lom va barkamol avlodni voyaga etkazish, ko'p jihatdan o'quv fani o'qituvchi

va pedagoglarining kasbiy mahoratiga, ularning o'quv mashg'ulotlari jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalana olishlariga bog'liqdir. Ta'lif-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llash uchun Geografiya o'kituvchilari maxsus metodik bilim va ko'nikmalarini egallashlari, pedagogik amaliyatda zarur bo'ladigan metodik tayyorgarlikka ega bo'lishlari lozim. Geografiya o'qituvchisi darsda o'rganiladigan mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari va pedagogik texnologiyalarning didaktik funksiyalarini hisobga olgan holda qaysi texnologiyadan foydalanishini ilmiy-metodik asosda tanlagandagina ko'zlangan maqsadga va samaradorlikka erishadi.

Interfaol usullar o'quv jarayonini faollashtirish va bilimlarni yanada qulayroq qilish, shuningdek, o'quv ma'lumotlarini tahlil qilish va o'quv materialini o'zlashtirishga ijodiy yondashishga yordam beradi. Hozirgi kunda geografiyani o'qitish metodlari o'kituvchi va o'quvchilarining o'zaro hamkorlik faoliyatini bir-biri bilan chambarchas bog'langan, tartibga solingan tizim sifatida qarashni talab etmoqda. Geografiyani o'qitishda samarali natijalarga erishishning asosiy yo'li - metod va usullardan ijodiy tarzda foydalanishdir. Geografiya darslarida interfaol va audiovizual o'qitish vositalaridan yangi narsalarni o'rganish va o'tilgan materialni mustahkamlashda foydalanish mumkin. Geografiya darslarini va sinfdan tashqari ishlarni qiziqarli va ijodiy tashkil etish geografiya o'qituvchisi oldidagi asosiy vazifalardan biridir. Darsda geografik o'yinlardan foydalanish muhim o'rinnegallaydi.

Geografiya ta'limi jarayonida "Charxpakalak", "Bumerang", "Zanjir o'yini", "Musbat, manfiy, qiziqarli (MMQ)", "Yelpig'ich", "Location" kabi bir necha interfaol metodlardan foydalanish mumkin. Ushbu darslarda o'quvchilarining bilim olish jarayonida o'yin faoliyati bilan uyg'unlashtiriladi. Bunday metodlar yordamida o'quvchilar puxta bilim egallaydilar, mustaqil fikr yuritadilar. Quyida biz geografiya ta'limida qo'llaniladigan shunday ta'limiy o'yinlarning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

"Charxpalak" metodi - O'quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarga ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, ko'p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o'rgatadigan metodlardan biri. Geografiya fani dars mashg'ulotlarining barcha turlarida dars boshlanishida yoki dars oxirida yoki o'quv predmetining biror bir bo'limni tugallaganda, o'tilgan mavzularni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash maqsadlarida qo'llaniladi.

"Bumerang" metodi - o'quvchilar dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishslash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab berish, fikrlarni erkin holda bayon eta olish, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotlarga ega bo'lish hamda dars mobaynida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarni baxolay olishga qaratilgan.

"Zanjir o'yini" metodi - o'quvchilarni xotirasini mustahkamlaydi, fikrni bir joyga jamlashni o'rgatadi. Ushbu metoddan o'tilgan mavzularni takrorlashda qo'llaniladi. O'quvchilarni 4ta guruhga bo'lib o'lib, har bir guruhdan 1o'quvchi doskaga chiqadi. 1-o'quvchi fanga oid atama aytadi, keyingi o'quvchi oldingi o'quvchi aytganini va o'zinikini qo'shib aytadi. Undan keyingisi oldingi 2ta o'quvchi aytgan atamalarga yana o'zi yangisini qo'shib aytadi. O'yin shu tariqa davom etadi. Adashgan o'quvchi o'yindan chiqib ketadi, eng oxirida o'yindan chiqib ketmay qolgan o'quvchi rag'batlantiradi.

"Musbat, manfiy, qiziqarli (MMQ)" metodi-geografiya ta'lif jarayonida o'quvchilarning ma'lum voqelik, hodisa yoki jarayonning barcha jihatlariga e'tibor qaratish, ularni salbiy jihatlarini baholash, qiziqarli tomonlarini aniqlash va kengaytirishga doir ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda samarali sanaladi. Bunda asosiy e'tibor mavjud vaziyatning barcha ijobiy jihatlarini inobatga olishga qaratiladi. O'rganilayotgan vaziyat yuzasidan xulosa chiqarish, qaror qabul qilish faqat u batafsil o'rganib chiqilgandan keyingina amalga oshirilishi mumkin. Ko'p

hollarda bir qarorga kelishni talab qiladigan vaziyatlarda ham ushbu metodni qo'llash maqsadga muvofiqidir. MMQ metodi bir vaqtning o'zida o'quvchilar faoliyatini o'rganish va baholash metodi ham hisoblanadi.

"Yelpig'ich" metodi-muammo xarakterdagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalarda muhokama etiladi. Masalan, ijobjiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi. Ushbu metod orqali o'quvchi mavzu yuzasidan xulosa chiqarishni o'rganadi.

"Location" metodi-mazkur metod orqali xaritalardagi ob'ektlarni boshqa bir obyektlarga nisbatan joylashgan o'rniga qarab o'rganishni talab etadi. Biz bu metod orqali o'quvchilarga xaritalar hamda atlaslarni oson va qiziqarli tarzda o'rgatishimiz mumkin. Ushbu metoddan nafaqat o'quvchilar, balki geografiya fani ixlosmandlari foydalanishi mumkin. Qo'llashdan maqsad o'quvchilarni mustaqil fikrlashni oshirish, xotirasini mustahkamlash, ko'plab ma'lumotlar orasidan keraklilarini tanlab olish va guruh bo'lib ishlashni o'rgatadi.

Ta'lim metodlarida o'qituvchining qiyofasi, uning dunyoqarashi, ruhiy pedagogik, uslubiy va maxsus ilmiy tayyorgarligi aks etgan bo'ladi. Xuddi shu omillar ta'lim metodlari samaradorligini belgilaydi. Muayyan metodga yaxshi tayyorgarlik ko'rмаган о'qituvchida shu metodning o'zi salbiy jihatlarini ham namoyon qilishi mumkin, shu sababli ta'lim metodlarini samaradorligini oshirish uchun o'qituvchining tayyorgarlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Metodlarni noto'g'ri tanlash o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini sust egallahsha sabab bo'ladi. Demak ta'limda universal metod yo'q. Shu tufayli ham o'qituvchi faqat bitta metoddan foydalanib dars o'tmaydi. Geografiya ta'limining eng muhim xususiyati shundan iboratki, o'qituvchi aksariyat darslarni o'tishda og'zaki bayon metodlarini qo'llaydi va samarali natijalarga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.X.Vaxobov, N.R.Alimkulov, N.B.Sultanova. Geografiya o'qitish metodikasi. Toshkent.2021
2. S.N.Abduvohidov, Z.A.G'aniyev . Geografiya ta'limi metodikasi.Samarqand. 2021.
3. A.Hayitov, N.Boymurodov. Ta'limda noana'naviy darslar va interfaol usullardan foydalanish. Toshkent. "Yangi asr avlodi" 2006
4. Rajabov Furkat Turakulovich, Sattorov Abdisamat Umirkulovich (2020)FARMS OF UZBEKISTAN: DEVELOPMENT , SPECIALIZATION , GEOGRAPHY. Journal of Critical Reviews,7 (6),1189-1196.
5. Xudoyorov L. X. O'zbekiston hududida birinchi va ikkinchi renessansning uchinchi renessansga bo'lgan poydevori. ШУКРОНАЛИК – ТИНЧЛИК ВА АҲИЛЛИК АСОСИ мавзусида Республика илмий-амалий конференция материаллари 2023 йил, 21 октябрь.